

## HINDISTONDA ORGANIK DEHQONCHILIKNING RIVOJLANISHI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Sadikova Gavxaroy Nasrullaxonovna**

*AQXAI tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Hindiston Respublikasida organik dehqonchilik sohasida amalga oshirilgan davlat siyosati, institutsional islohotlar, mahalliy agroekologik bilimlarning saqlanishi, sertifikatlash tizimi va innovatsion yondashuvlar asosida erishilgan yutuqlar tahlil qilinadi. Xususan, Hindiston tajribasining O'zbekiston uchun dolzarbliji, uni amaliyotda tatbiq etish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Organik dehqonchilik, Hindiston tajribasi, O'zbekiston agrar siyosati, sertifikatlash, vermikompost, agroekologiya, barqaror qishloq xo'jaligi, eksport, organik mahsulot, innovatsiya.

Organik dehqonchilik – agroekologik jihatdan barqaror qishloq xo'jaligi usuli bo'lib, unda sintetik pestitsidlar va mineral o'g'itlar o'rniga tabiiy resurslardan foydalaniladi. So'nggi yillarda Hindistonda organik dehqonchilik tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. FIBL va IFOAM tomonidan 2023-yilda e'lon qilingan statistik ma'lumotlarga ko'ra, Hindiston organik yer maydoni bo'yicha dunyoda 6-o'rinda, organik fermerlar soni bo'yicha esa birinchi o'rinda turadi<sup>4</sup>. Mamlakatning xilma-xil agro-iqlim sharoitida organik dehqonchilik an'anaviy mahalliy tajriba va zamonaviy yondashuvlar asosida amalga oshirilib kelinmoqda. Shu bilan birga, organik dehqonchilikni qo'llab-quvvatlash hozirgi kunda ham davlat siyosatida muhim o'rin tutmoqda va Hindiston Xalqaro organik qishloq xo'jaligi tashkiloti (IFOAM) kabi global hamkorlar bilan faol hamkorlik olib bormoqda.

Hindistonda organik dehqonchilikni tartibga soluvchi asosiy milliy dastur – 2000-yilda ishga tushirilgan Milliy Organik Mahsulotlar Dasturi (NPOP) bo'lib, uning boshqaruvini Savdo vazirligi huzuridagi APEDA tashkiloti amalga oshiradi. Ushbu dastur organik yetishtirish va sertifikatlashning milliy standartlarini belgilaydi, chet elga eksport qilinadigan organik mahsulotlar sifatini nazorat qiladi. Hindistonning organik qishloq xo'jaligi amaliyotlari IFOAM asosiy standartlari, BMT Codex va Yevropa ittifoqi 2092/91 reglamentlari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, Hindiston NPOP qoidalari bir necha rivojlanayotgan mamlakatlar orasida 2000-2009-yillarda Yevropa ittifoqida ekvivalensiya ro'yxatiga kiritilgan. O'z navbatida, 2002-yildan boshlab APEDA "India Organic" sertifikat belgisini taqdim etib, organik mahsulotlarning milliy standartlarga mos kelishini kafolatlaydi.

<sup>4</sup> [apeda.gov.in](http://apeda.gov.in)

Organik mahsulot sertifikatlashning ikki asosiy turi mavjud. Birinchi tizim – eksportsifatida uchinchi tomon akkreditatsiya qilingan sertifikat agentliklari tomonidan olib boriladigan NPOP sertifikatlashdir. Ikkinci tizim – ichki bozorda qo'llaniladigan Hamkor sifat kafolati (PGS-India) tizimi bo'lib, bunda fermer va iste'molchi guruhlari o'zaro tekshiruv orqali mahsulotni organik deb e'lon qiladi. PGS-India qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan boshqariladi va mahalliy dehqonlar o'zaro ishonch asosida sertifikat beradi.

Butun Hindiston Organik Dehqonchilik Federatsiyasi-All India Organic Farming Federation (AIFOF) kabi nodavlat tashkilotlar ham faol hisoblanadi. AIFOF IFOAMning a'zosi bo'lib, organik fermerlar va turli nohukumat tashkilotlarni birlashtiradi. 2022-2023 yillarda mamlakatda sertifikatlangan organik mahsulotlarning umumiy hajmi 2,9 million tonnaga yetdi. Hindiston organik mahsulotlari serhosildor va rang-barang bo'lib, asosiy eksport tovarlari sifatida paxta va boshqa tabiiy tolalar, yormalar (bug'doy, guruch), ko'katlar va qishloq xo'jaligi mahsulotlari (meva, sabzavotlar, kofe, choy), shuningdek ziravorlar va dorivor o'simliklar sanaladi.

So'nggi yillarda Hindistonning organik eksporti ham sezilarli darajada o'sdi. 2022-2023-yillarda Hindiston jami 312,800 tonna organik mahsulot eksport qilib, bu evaziga taxminan 0,66 mlrd AQSh dollari daromad oldi.

Hindistonda organik dehqonchilikning yetakchi shtatlaridan biri Madhya Pradesh hisoblanadi. APEDA ma'lumotlariga ko'ra, u eng katta maydondagi sertifikatlangan organik ekin yetishtiriladi. Shtat organik paxta, ko'katlar, dukkaklilar va ziravorlar etishtirishda ixtisoslashgan. Madhya Pradesh hukumati tomonidan 2017-yilda Madhya Pradesh Organic Farming Mission (Madhya Pradesh organik dehqonchilik missiyasi) tashkil etilgan, fermerlarni organikga o'tishga rag'batlantirishga qaratilgan turli dasturlar joriy etilgan. Masalan, shtatda bir qator tumanlar organik klasterlarga birlashtirilib, fermerlarga bepul sertifikat va molivaviy ko'mak berilmoqda.

Hindistonning Sikkim shtati 2016-yilda rasmiy ravishda dunyodagi birinchi 100% organik shtatga aylanganligi bilan ajralib turadi. Shtat hukumati 2003-yilda kimyoviy o'g'it va pestitsidlarni bosqichma-bosqich taqiqlashni boshladi, va 2015-yilda barcha dehqonlar organik rejimga o'tkazildi. 2016-yilda Sikkimning 100% yer maydoni (75 mingdan ortiq hektar) organik sertifikat bilan qoplanganini e'lon qilindi. Sikkimda organik dehqonchilik boshqaruvi uchun Sikkim Organik Missiyasi (SOM) tashkil qilingan bo'lib, u tuproq sog'lig'i va biologik uskunalar – jumladan vermicompost va mikorizali zamburug'lardan keng foydalanishni rag'batlantiradi. Shunday qilib, Sikkim organik mahsulotlarning ichki va ekoturizm bozorini rivojlantirdi. Ushbu harakat BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti)ning Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tashkiloti (FAO) hamkorligida beriladigan "Kelajak siyosati" bo'yicha Oltin mukofotiga sazovor bo'lib, boshqa mamlakatlami ham rag'batlantiruvchi namunaga aylandi.

Hindiston organik dehqonchilikida turli innovatsion va biologik texnologiyalar qo'llaniladi. Bularga vermikompost (qurtli compost), mikorizali zamburug'lar, nano-biostimulyatorlar va organik fermerlikda neem, pudina va timyan kabi tabiiy pestitsidlar, shuningdek azot fiksatsiya qiluvchi bakteriyalar (*Rhizobium*, *Azotobakter*, fosfat erituvchi mikroblar) keng qo'llanadi. Bu agrotexnologiyalar Hindistonning agroekologik tamoyillariga mos keladi. Masalan, vermikompost ekotizim uyg'unligini ta'minlaydi: u nafaqat tuproq unumdorligini oshiradi, balki begona o'simlik urug'i va kasallik manbalarini kamaytiradi. Shu tarzda, milliy dehqonlarning an'anaviy bilimlari bio-o'g'it va pestitsidlar bilan to'ldirilib, barqaror organik tizimlar paydo bo'lmoqda. Bularning barchasi suv va tuproqni zaharsizlantirish hamda qo'shimcha daromad manbalarini yaratishga xizmat qiladi.

Hindiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, organik dehqonchilikni rivojlantirishda davlat siyosati, mahalliy agroekologik bilimlar, innovatsion texnologiyalar va xalqaro sertifikat tizimlarini bir butun tizimga aylantirish muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonning agrar sektori ham xuddi Hindistondagidek suv tanqisligi, tuproq degradatsiyasi kabi muammolar bilan yuzma-yuz turibdi. Shu bois Hindiston tajribasidan quyidagi yo'nalishlarda samarali foydalanish mumkin:

Sertifikatlash tizimini kuchaytirish Hindistonda organik mahsulotlar uchun ikki yo'nalishli sertifikatlash amaliyoti mavjud: eksport uchun NPOP va ichki bozor uchun PGS-India tizimlari. O'zbekistonda ham shunday ikki pog'onali tizimni joriy etish orqali eksport salohiyatini oshirish va ichki bozorda ishonchli sertifikatlash asoslarni yaratish mumkin. Bu dehqonlar va iste'molchilar o'rtaqidagi ishonchni mustahkamlaydi.

Hududiy organik klasterlar yaratish. Hindistonda Madhya-Pradesh va Sikkim kabi shtatlar maxsus organik zonalarga aylantirildi. O'zbekistonda ham ekinlar tarkibiga, agroiqlimga va suv manbalariga qarab, masalan, Qashqadaryo, Surxondaryo yoki Farg'ona vodiysi kabi hududlarda bosqichma-bosqich organik qishloq xo'jaligi klasterlari tashkil etish mumkin. Bu fermerlar uchun yondashuvlarni soddalashtiradi va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Mahalliy bilimlar va agroekologik yondashuvlar uyg'unligi Hindistonda an'anaviy dehqonchilik usullarini zamонави biologik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish tajribasi O'zbekiston uchun ham dolzarb. Xususan, cho'l zonalarida qishloq xo'jaligi yuritish, o'rta tog' hududlarida namlikni saqlovchi agrotexnik uslublar, tabiiy pestitsidlar (masalan, neem ekstrakti)dan foydalanish orqali ekologik xavfsiz qishloq xo'jaligini yaratish mumkin.

Davlat tomonidan moliyaviy rag'batlar. Hindiston hukumati PKVY dasturi orqali har bir fermerga alohida subsidiya ajratmoqda. O'zbekistonda ham ekologik toza dehqonchilikka o'tishni rag'batlanirish uchun soliq imtiyozlari, kreditlar, bepul yoki

chegirmali organik texnologiyalar taqdim etish orqali organik ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash mumkin.

Eksportni kengaytirish va brend yaratish. Hindiston “India Organic” degan milliy organik brendni yaratgan bo‘lsa, O‘zbekistonda ham “UzOrganic” singari yagona organik mahsulot belgisi joriy qilinishi mumkin. Bu xorijiy importyorlar uchun ishonch belgisi bo‘lib xizmat qiladi va mahsulotlarning eksport qiyamatini oshiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.FIBL va IFOAM 2023 yilgi jahon organik qishloq xo‘jaligi hisobotlari;
2. Hindiston Savdo vazirligi/APEDA ma’lumotlari (NPOP, sertifikatlash, eksport);
- 3.Hindiston Qishloq xo‘jaligi vazirligi bayonotlari (PKVY, PGS);
- 4.The ‘World’s First Fully Organic State’ is in India; its name begins with the letter ‘S’  
[TIMESOFINDIA.COM/](http://TIMESOFINDIA.COM/) Apr17,2025